



UO'T: 821.512.133;82-1/-9; 398.2(575.1):001.891

Jayrona SULTANOVA,
Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail: jayrona_sultanova@mail.ru

THE GENRE CHARACTERISTICS AND EVOLUTIONARY PHASES OF FOLK TALES

Annotation

This article examines the formation and classification of the fairy tale genre and the storytelling tradition within the oral heritage of Uzbeks. The study explores genre classifications in folklore, the relationship between fairy tales and other genres, artistic and functional characteristics, and the division based on ritual performance. The approaches and classifications proposed by Uzbek scholars are also critically analyzed.

Key words: Fairy tale, Uzbek oral tradition, genre classification, epic genre, ritual folklore, performance, artistry.

ТИПОЛОГИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ЖАНРА НАРОДНОЙ СКАЗКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности формирования и классификации жанра сказки и традиции сказительства в устной традиции узбекских тюрок. В исследовании подробно анализируются классификации жанров в узбекском фольклоре, взаимосвязь сказки с другими жанрами, уровень художественности и функциональные особенности жанров, а также их связь с обрядовой практикой. Особое внимание уделяется взглядам и классификационным подходам узбекских учёных.

Ключевые слова: сказка, устная традиция узбеков, классификация жанров, эпический жанр, обрядовый фольклор, исполнение, художественность.

XALQ ERTAKLARI JANRI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek turklarining og'zaki an'anasida ertak janri va ertak aytish an'anasining shakllanishi, tasnifi va amaliy ifodalanish xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda folklordagi janrlar tasnifi, ertaklarning boshqa janrlar bilan aloqasi, janrlarning badiiylilik darajasi va funksional xususiyatlari, shuningdek, marosim bilan bog'liqlik mezonini asosida bo'linishi keng yoritilgan. Shuningdek, o'zbek olimlarining bu boradagi asosiy tasnifiy yondashuvlari va fikrlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ertak, xalq og'zaki ijodi an'anasi, janr tasnifi, epik janr, marosim folklori, ijro, badiiylilik.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar davomida xalqning estetik qarashlari, axloqiy qadriyatlarini, diniy va ijtimoiy hayotini mujassam etgan murakkab madaniy qatlamdir. Ayniqsa, ertak janri bu ijodning markaziy bo'g'inlaridan biri bo'lib, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan va o'zbeklar orasida boy shakl va mazmuniy tizimda rivoj topgan. Ushbu maqola o'zbek turklarida ertak janri va ertak aytish an'anasi masalalarini o'rganish orqali, janrning folklor tizimidagi o'rnini va uning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda o'zbek folklorining janrlar tizimi, ularning tasnifi va funksional tahliliga oid bir qator muhim ilmiy qarashlar mavjud. T. Mirzayev, A. Safarov, B. Sarimsoqov kabi olimlar janrlarni "epik", "lirik", "dramatik" va "maxsus" guruhlarga ajratgan. K. Imomov esa folklorning nasriy janrlariga ixtisoslashib, ertakning badiiylilik darajasi va estetik-funksional mezonlariga urg'u bergan. Marosim folklori haqidagi tadqiqotlar esa ertaklarning tarixiy jihatdan marosim bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tasnif, tahlil va qiyosiy yondashuv metodlari asosida yozilgan. Asosiy e'tibor o'zbek folklorshunosligida mavjud tasnifiy yondashuvlarni aniqlash va ularni ertak janri misolida tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, tarixiy va mantiqiy yondashuvlar asosida ertak aytish amaliyotining

shakllanishi va saqlanish mexanizmlari ham ko'rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Turkiy xalqlarga xos umumiy madaniyat unsurlarini, uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini, qisman ko'chmanchi, qisman o'troq hayot tarzini va boshqa jamiyatlar bilan bo'lgan aloqalarni o'zida aks ettirgan o'zbek og'zaki an'anasi xalq og'zaki adabiyoti janrlari nuqtayi nazaridan nihoyatda boydir. Bu an'ana doirasida shakllangan og'zaki asarlar orasida ko'plab jamiyatlar og'zaki an'anasida mavjud bo'lgan "ertak", "afsona", "latifa" va "maqol" kabi janrlar bilan bir qatorda, faqat o'zbeklar orasida uchraydigan "lof" va "askiya" kabi janrlar ham mavjud. Ushbu janrlar tarkibida insoniy qadriyatlar, turk madaniyati unsurlari va mahalliy elementlarning qayta ishlanganligi o'zbek og'zaki an'anasining mahalliy, milliy va xalqaro xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonning Sirdaryo va Amudaryo havzalarida joylashgan Xorazm, Buxoro, Toshkent va Farg'ona hududlaridagi shahar madaniyati hamda bu bilan bog'liq yozma adabiy an'ana, shuningdek, asosan tog'li, dasht va cho'l hududlariga ega Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi madaniyatda rivojlangan og'zaki ijodiy faoliyat tarixiy jarayonlar bilan uzviy tarzda uyg'unlashib, o'zbek xalq og'zaki ijodi asosini tashkil etgan.

Mavzu, obraz va motiv jihatidan juda rang-barang va xilma-xil bo'lgan Xorazm xalq ertaklari doimo xalq og'zaki an'anasining markazida turib kelgan va bu an'ananing xususiyatlarini ko'plab jihatlarida o'zida mujassam etgan janr sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli ertak janri Xorazmda qadim zamonlardan hozirgi kungacha eng ko'p tanilgan, zavq bilan aytilib tinglangan, shuningdek, o'zbek olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan janrlardan biri bo'lgan. Bizning Xorazm xalq ertaklariga bag'ishlangan ushbu tadqiqotimizning ushbu bo'limi xalq og'zaki ijodining ertak janri va ertak aytish an'anasi masalalariga bag'ishlangan ushbu maqolada o'zbek olimlarining folklor janrlarini tasniflashida ertakning o'rni, ertak janrini ifodalash uchun ishlatilgan terminlar, ertak ta'riflari, tasniflash mezonlari va ertakning boshqa janrlar bilan aloqasi haqida fikr yuritilgan. Xorazmda ertak aytish an'anasi — ya'ni aytuvchi, tinglovchi, aytish joyi, vaqti va ertak matni kabi asosiy elementlar jihatidan tahlil etilgan.

O'zbek xalq ertak janrining nomlanishi, ta'rifi va tasnifi masalalariga o'tishdan avval, o'zbek olimlarining folklor asarlarini umumiy tarzda tasniflash usullari haqida ma'lumot berish, masalaga kengroq nazar bilan yondashish imkonini beradi. Xorazm xalq ertaklari folklorini tasniflashdan maqsad — ertak janrining o'zbek folkloridagi o'rni ko'rsatish va o'zbek olimlari bu janrni boshqa janrlar ichida qanday ko'rganini anglatishdan iborat.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek folklorining tasniflanishiga oid monografik tadqiqot mavjud emas. Janrlar asosan "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" (1980), "O'zbek folklori ocherklari" (1988) va "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" (1990) kabi qo'llanmalarda joylashgan "Folklor janrlari"[1], "O'zbek folklorining janr tuzilishi"[2] va "O'zbek folklorining janr tizimi"[2] nomli bo'limlarda tasniflangan. O'zbek olimlarining rus tadqiqotchilaridan ham ilhomlanib, xalq og'zaki ijodining turli belgilarga ko'ra guruhlarga ajratgan bir nechta tasniflarini ko'rsatish mumkin. O'zbek folklor mahsulotlarining dastlabki tasnifi Aristotel tomonidan ilgari surilgan, keyinchalik esa nemis mutafakkiri F. Gegel va rus adabiyotshunosi V. G. Belinskiy tomonidan qo'llanilgan[2] "adabiy janrlar tasnifi"ning folklor mahsulotlariga tatbiq etilishi natijasida yuzaga kelgan.

Mazkur tasnif o'zbek tilida "tur", "janr" va "janriy xilma-xillik" atamaları asosida shakllangan. Rus tilidagi "rod" (tur) atamasiga o'zbek tilida keng qo'llaniladigan "tur" atamasi mos keladi. Turkiya turkchasida bu "tur" atamasi, aslida, yanada yuqori darajadagi umumlashtiruvchi tushuncha bo'lgan "cins" (sinf) atamasiga mos keladi. Ingliz tilidagi "genre" so'zining rus tilidagi ekvivalent bo'lgan "janr" atamasi o'zbek tiliga ham aynan shunday ko'rinishda kirib kelgan va Turkiya turkchasidagi "tur" atamasining o'zbekcha muqobili sifatida ishlatilmoqda[4].

"Janriy xilma-xillik" (turlar xilma-xilligi) atamasi esa ma'lum bir janrning ichki bo'linmalarini, ya'ni quyi guruhlarini ifodalaydi. Masalan, ertak janrining tarkibiy qismlari bo'lgan "hayvonlar haqidagi ertaklar", "sehrli ertaklar" kabi kichik janrlar "janriy xilma-xillik" tushunchasi bilan ifodalanadi.

O'zbek folkloridagi janrlar Bahodir Sarimsoqov tomonidan "hayotni qamrab olish darajasi va asarning badiiy tizimi yaxlitligi"[3] ga ko'ra, Ahunjon Safarov va To'ra Mirzayev tomonidan esa "haqiqatni tasvirlash xarakteri"[1]ga qarab to'rt asosiy guruhda tasniflangan.

O'zbek olimlarining tasnifida quyidagi sarlavhalar va ularning tarkibiga kiruvchi janrlar mavjud:

1. Epik janrlar: doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, terme, tarixiy qo'shiq, latifa, laf.

2. Lirik janrlar: marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, sevgi-muhabbat qo'shiqlari, mani.

3. Dramatik janrlar: og'zaki drama, kulgili hikoya, qo'g'irchoq, askiya.

4. Maxsus janrlar: duo (olqish), la'nat (qarg'ish), topishmoq, maqol, iboralar[2].

A. Safarov va T. Mirzayev ushbu janrlarning haqiqatni tasvirlash uslubi jihatidan bir-biridan farq qilishini ta'kidlagan va shunday yozishgan: "Epik janrlar haqiqatni muayyan voqealar zanjiri asosida hikoya vositasida, obyektiv tarzda ifodalaydi. Lirik janrlar esa insonning haqiqat oldidagi taassurot va his-tuyg'ularini subyektiv tarzda tasvirlaydi. Dramatik janrlar esa obrazlarning so'z va harakatlari orqali hayotning turli manzaralarini sahnaga chiqaradi." Bu yerda "obyektiv" va "subyektiv" bo'lish holati shundan iboratki: epik janrlar xalq nigohida voqea va hodisani o'zini hikoya qilsa, lirik janrlar asosan voqealarning o'zidan ko'ra kishining bu voqealar oldidagi ruhiy holati, fikr va hislarini ifoda etadi. Shu sababli epik janrlar hikoyaga asoslanadi va shakl jihatidan ko'pincha nasriy bo'ladi; lirik janrlar esa hikoya qilishga emas, his-tuyg'ularni ifodalashga qaratilgan bo'lib, shakl jihatdan asosan nazmiydir. Izzat Sulaymonning "Hozirgi o'zbek tilida epos – 'nasr', lirik esa – 'nazm' atamaları bilan ifodalanadi" degan fikri ham aslida mana shu mazmunning boshqa shaklda ifodalanishidir.

Ko'rsatishga asoslangan dramatik janrlar esa bir vaqtning o'zida ham voqeani, ham bu voqealar oldidagi his-tuyg'ularni so'z va harakatlar vositasida ifodalaydi. Shuning uchun ularning tarkibida ham nasr, ham nazm ko'rinishidagi matnlar mavjud bo'ladi. Olimlarimiz tomonidan "Maxsus janrlar" deb atalgan janrlar — ya'ni maqol, topishmoq, duo, la'nat va boshqalar — Turkiyadagi tadqiqotlarda "Erkin janrlar" deb ataladi. Ular mustaqil janr sifatida ko'rilishdan ko'ra, boshqa janrlar tarkibida mavjud bo'lgan shakllar hisoblanadi. Bu janrlarning ham nasriy, ham nazmiy namunalarini uchratish mumkin. Shu sababli, bu tasnif asosan folklor matnlarining shakliiy xususiyatlariga asoslangan tasnif hisoblanadi. Ushbu tasnif Aristotelning adabiy janrlar haqidagi tasnifiga asoslangan bo'lib, Turkiyada anonim xalq adabiyoti namunalarining shakliga qarab "Nazmiy", "Nasriy" va "Nazmiy-Nasriy (Aralash)" shaklida tasniflanishiga o'xshashdir.

To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Ahun Safarov kabi olimlar o'zbek folkloridagi janrlarni o'zlarining yuqorida nomi keltirilgan asarlarida "ijro vaqti va joyi" mezonini asosida ham tasniflashgan. Bu tasnif o'zbek folklorining marosim bilan bog'liqligini asos qilib oladi va janrlar "marosimda ijro etiladigan" hamda "marosimdan mustaqil ijro etiladigan" deya turlarga ajratilgan. Folklorchi Bahodir Sarimsoqov "O'zbek marosim folklori"[7]ga oid tadqiqotlarida folklor janrlarini "ijro joyi" va "ijro vaqti"ga ko'ra ikkita asosiy guruhga ajratgan va har bir guruhga tegishli kichik toifalarni quyidagicha sanab o'tgan:

I. Marosimga bog'liq janrlar:

Faslarga oid marosimlarda ijro etiladigan janrlar:

a) Faqat mavsumiy bayramlarda (Navro'z ayyomi, Lola sayli, Sumalak qo'shig'i).

b) Odamlarning mavsumga oid faoliyati bilan bog'liq (Qo'sh qo'shig'i, Sust xotin, Choymama, Chittigul).

Ijtimoiy hayot bilan bog'liq marosimlarda ijro etiladigan janrlar:

a) So'zning sehrli kuchiga asoslangan (Ofatlar, Bedik, Burey-Burey, Xinna, Duo).

b) Tug'ilish va o'sishga oid (Beshik to'yi – Beshik egasi keldi, Kuçuklari qach qach; Sunnat to'yi – Char, quloq echish; Fotixa to'yi – Duo; Nikoh to'yi – O'lan, Yar-yar, Kelin salom, Kuyov salom).

c) O'lim bilan bog'liq (Yig'i, Yo'qlov, Matam yar-yarlari).

II. Marosimga bog'liq bo'lmagan janrlar:

Hech bir marosimga bog'liq bo'lmasa-da urf-odat va an'analarga bog'liq (masalan, safarga chiqayotganlar uchun aytiladigan duolar).

Qo'shiq

Afsona

Rivoyat

Naql

Latifa

Ertak

Terma

Tarixiy qo'shiq

Doston

Og'zaki drama

Askiya

Maqol

Topishmoq

Duo-la'nat

Iboralar va frazemalar[2]

Bahodir Sarimsoqov bu tasnifga kirishdan avval, marosim folklori jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga parallel ravishda o'zgarishi va yangidan shakllanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Jamiyat ehtiyojlariga qarab, vaqt o'tishi bilan yangi marosimlarning yuzaga kelishi yoki endi kerak bo'lmagan marosimlarning asta-sekinlik bilan yo'qolib borishi tufayli, marosim folkloridagi janrlar soni ortishi yoki kamayishi mumkinligini bildiradi. Tadqiqotchi, folklor janrlarining marosim bilan bog'liqligi borasida quyidagi fikrni ham bildiradi:

“Qadimgi davrlarda marosimdan mustaqil ravishda ijro etilgan janrlar nihoyatda kam bo'lgan. Hatto doston va ertak kabi epik janrlar ham dastlab marosim bilan bog'liq holda yashagan. Bu janrlar maxsus joylarda, aniq vaqtlar va ma'lum sharoitlar ostida, belgilangan tinglovchilar guruhi oldida aytilgan. Bugungi kunda esa ertak aytish vaqtiga oid ayrim taqiqlarning hali ham saqlanib qolayotgani bizning bu fikrimizni ma'lum darajada tasdiqlaydi. Keyingi davrlarda esa bu ikki janrning ijrosiga bo'lgan talabning asta-sekin kamayib borishi, ularning marosim bilan bog'liqligini butunlay yo'qotdi va ijro maydonining kengayishiga sabab bo'ldi.”[3] B. Sarimsoqovning ushbu mulohazalari shuni anglatadiki, marosimga bog'liq tarzda tuzilgan bu tasnif kelajakda o'zgarishga uchrashi mumkin. Folklor janrlarini ularning tegishli marosimlariga qarab tasniflash esa vaqt o'tishi bilan muhokamaga sabab bo'lishi mumkin. Chunki bu janrlar tegishli bo'lgan marosimlar turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sabablar tufayli yo'q bo'lib ketishi mumkin. Biroq bu holat marosim davomida ijro etilgan og'zaki asarlar uchun doim ham to'g'ri kelmasligi mumkin.

Boshqacha aytganda, og'zaki rivoyatlar vaqt o'tishi bilan marosimdan mustaqil ravishda ham aytiladigan bo'lib qoladi. Buning natijasida esa avvalgi tasnif dolzarbligini

yo'qotadi va yangi tasnifga ehtiyoj tug'iladi. Shu boisdan, B. Sarimsoqov tomonidan taklif etilgan tasnifni abadiy amal qiladigan qat'iy tasnif deb baholash to'g'ri emas. Buning o'rniga, mazkur tasnifni folklor janrlarining kelib chiqish jarayonini tushunishga yo'naltirilgan bir nuqtai nazar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yerda tahlil qilinadigan yana bir tasnif — o'zbek folklorining umumiy tizimidan ko'ra, faqat nasriy janrlarini qamrab oladi. Asosan o'zbek xalq adabiyotining nasriy janrlari ustida izlanish olib borgan Kamiljon Imomov o'zining “O'zbek xalq prozasi”[9] va “O'zbek xalq nasriyoti poetikasi”[10] nomli asarlarida o'zbek folkloridagi nasriy janrlarni quyidagicha ikki guruhda tasniflagan:

Mif, afsona, rivoyat va demonik hikoyalar.

Ertak, naql, latifa, lof

K. Imomov birinchi guruhga kiruvchi mif, afsona, rivoyat va demonik hikoyalarni ikkinchi guruhdagi janrlardan ajratib turuvchi xususiyatlarni quyidagicha izohlagan:

“Bu guruhdagi janrlarning badiiylilik darajasi nisbatan zaifroqdir. Ularda hayotda sodir bo'lgan va ishonch uyg'otuvchi voqealar hikoya qilinadi. Bu janrlarning ahamiyati shundaki, ular ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi, diniy e'tiqodga da'vat etadi, bu e'tiqodlarni mustahkamlashga qaratilgan syujetlar asosida quriladi, axborot berish funksiyasini bajaradi, hayotda qo'llanilishi mumkin, haqiqatni tasdiqlash, o'rgatish va xabardor qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi”[7].

Tadqiqotchi, ertak, naql, latifa va lof kabi janrlarning ikkinchi guruhga kiritilishiga sabab bo'lgan xususiyatlarni esa quyidagicha bayon qiladi:

“Bu guruhdagi janrlar yuqori badiiylilik darajasiga, axloqiy mezonlarni belgilash, tarbiyaviy va estetik zavq berish, jamiyatdagi va kundalik hayotdagi voqealarni xayoliy va hayotiy tasavvur orqali hikoya qilish xususiyatlariga ega”[7].

K. Imomovning bu izohlari shuni ko'rsatadiki, u ilgari surgan tasnif janrlarning badiiylilik darajasi va funksional xususiyatlariga tayanadi. Bu yerda ertak ham kiritilgan ikkinchi guruhga oid janrlar haqida aytilgan xususiyatlar ertak janrining o'ziga xos belgilari hamdir. Shu boisdan, Kamiljon Imomovning bu baholari o'zbek olimlarining ertak janriga bergan yondoshuvlarini ifodalashi jihatidan diqqatga sazovordir.

Yuqorida keltirilgan tasniflardan tashqari, ushbu bobni tayyorlagan tadqiqotchilar to'liq tasnif shaklida bo'lmasa-da, o'zbek folkloridagi janrlarni bir-biridan ajratib turuvchi ba'zi xususiyatlar haqida ham fikr yuritishgan. Bu farqlarni yuzaga keltiruvchi eng birinchi omil — janrlarning ijrochilariga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Xalq og'zaki ijodida ertaklar epik janrlar guruhiga kiradi va voqeani obyektiv tarzda hikoya qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

Ertak janrining ichki bo'linmalari “janriy xilma-xillik” tushunchasi asosida tasniflanadi (masalan, sehrli, hayvonlar haqidagi ertaklar).

Xorazm xalq ertaklarining ayrimlari dastlab marosim bilan bog'liq bo'lgan, keyinchalik esa mustaqil janrga aylangan.

Tadqiqotda K. Imomovning janrni badiiylilik darajasi va estetik funksiyalar asosida tasniflagan yondashuvi ayniqsa muhim deb baholanadi.

Ertak aytish amaliyoti xalq orasida vaqt, joy, tinglovchi va aytuvchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda muhim o'rin egallagan.

Xulosa va takliflar. Xalq og'zaki ijodi an'anasida ertak janri yuksak estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bu janrning shakllanishi va rivojlanishi xalqning

madaniy-milliy tafakkuri bilan bevosita bog'liq. Folklor janrlarini turli mezonlar asosida tasniflashga qaratilgan yondashuvlar ertak janrining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. K. Imomov va B. Sarimsoqovning yondashuvlari bu borada muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirzayev T.. "Folklor janrlari". H. Razzakov va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: O'qituvchi nash., 1980,
2. Safarov A – T. Mirzayev. "O'zbek folklorining janrlar tizimi". K. Imomov va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: O'qituvchi nash., 1990,
3. Sarimsoqov. "O'zbek folklorining janr tarkibi". O'zbek folklori ocherklari, jild 1. Toshkent: Fan nash., 1988,
4. Izzat Sulaymon. O'zbek adabiyotshunoslari rus tilidagi "rod" so'ziga mos ravishda "tur" atamasi bilan bir qatorda "cins" (sinf) yoki "hil" (xilma-xillik) atamalarini ham qo'llashganini ta'kidlaydi. Batafsil: I. Sulaymon. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi nash., 1980, 229-bet.
5. Xalq tomonidan turli sabablarga ko'ra ma'lum davrlarda tashkil etilgan marosimlar va bu marosimlarda ijro etilgan folklor janrlari rus tadqiqotchilari izlanishlariga o'xshash tarzda, o'zbek folklor tadqiqotlarida "marosim folklori" nomi ostida alohida soha sifatida o'rganiladi. Batafsil:
6. Sarimsoqov B.. O'zbek marosim folklori. Toshkent: Fan nash., 1986.
7. Jo'rayev M.. O'zbek mavsumiy marosim folklori. Toshkent: Fan nash., 2008.
8. Sarimsoqov B.. "O'zbek folklorining janr tarkibi". O'zbek folklori ocherklari, jild 1. Toshkent: Fan nash., 1988, 68–84-betlar.
9. Imomov K.. O'zbek xalq prozasi. Toshkent: Fan nash., 1981.
10. Imomov K.. O'zbek xalq nasriyoti poetikasi. Toshkent: Fan nash., 2008.